

## MUSTAQILLIK DAVRIDA TARIXIY TADQIQOTLAR UCHUN YANGI YO'NALISHLARNING OCHILISHI

**Abdinabiyev Hikmatilla Ehsonovich**

*Termiz iqtisodiyot va servis universiteti*

*Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrası o'qituvchisi.*

*Pochta: hikmatillaabdinabiyev@tues.uz*

*Tel: +998934143535*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada mustaqillika erishganimizdan keyin tarixiy o'zgarishlar, tarix fanida olib borilgan islohotlar tarixiy jarayonlar bo'yicha ma'lumot beriladi.

**Kalit so'zlar.** Tarix, tarixshunoslik, tarixiy tadqiqotlar, sovet tarixishunosligi, Tarix instituti.

**Аннотация.** В этой статье рассказывается об исторических изменениях после обретения независимости, реформах, проводимых в области истории.

Ключевые слова. История, историография, исторические исследования, советская историография, Институт истории.

**Abstract.** This article tells about historical changes after independence, reforms carried out in the field of history.

**Keywords.** History, historiography, historical research, Soviet historiography, Institute of History.

Vatanimiz mustaqilligiga erishganidan keyingi o'tgan qisqa davrda davlatimizda barcha sohalarida kechgani kabi milliy tariximizni tiklash uchun olimlarimiz tomonidan harakatlar boshlandi. Xalqimizda milliy g'ururni singdirish uchun albatta shonli tariximizni qaytadan yozib unga milliy mustaqillik ruhini bermog'imiz zarur edi. Olib borilayotgan islohotlar barcha islohotlar davlatimiz iqtisodiyoti, davlat qonunchiligi xalqaro andozalar asosida rivojlanishda davom etishiga xizmat qilayotgani barchamizga ma'lumdir. Yurtimizda, birinchi navbatda, yosh avlod vakillarini yuksak ma'naviyat bilan qurollantirish, ularda milliy iftixor tuyg'usini shakllantirish va ma'naviy barkamol avlod qilib tarbiyalashda ona-Vatan tarixi va xalqimizning boy madaniy merosi qanchalar muhim ahamiyat kasb etishini anglagan holda 1996 yil 16 dekabrda Vazirlar Mahkamasining "O'zbekistonning yangi tarixini yaratish to'g'risida"gi maxsus qarori qabul qilindi. Birinchi Prezident I.Karimovning 1998 yilda bir guruh, tarixchi olimlar bilan o'tkazgan muloqotidan so'ng "Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q" nomli asari e'lon qilindi. Bu risola tom ma'noda xalqimizning shonli tarixini yaratishda o'ziga xos bir mayoq vazifasini o'tadi. Bu risolada O'zbekiston tarixining eng dolzarb muammolari – o'zbek xalqining kelib chiqishi, davlatchilik tarixi masalalariga katta e'tibor qaratilgandir. Shu sababli ham

1998 yil 27 iyulda Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Tarix institutining faoliyatini takomillashtirish to‘g‘risida”gi 315 son-qarori e‘lon qilindi. Mazkur qarorning qabul qilinishi davlatimizning tarixi yoritishda muhim ahamiyat kasb etdi va “O‘zbekiston xalqi va uning davlatchiligi” mavzusidagi maxsus ilmiy dasturi ishlab chiqildi. Risolada keltirilgandek “Tarix-ma’naviyatning asosidir”<sup>1</sup>, “Inson uchun tarixidan judo bo‘lish-hayotdan judo bo‘lish demakdir”<sup>2</sup>, “O‘zlikni anglash tarixni bilishdan boshlanadi”<sup>3</sup>, degan hikmatli so‘zlarga urg‘u berar ekan, “Jamiyat taraqqiyotining asosi, uni muqarrar halokatdan qutqarib qoladigan yagona kuch ilm-ma’rifat”, degan haqli xulosaga keladi. Darhaqiqat, xalqni ma’rifatli qilishda tarixni o‘rni, birinchi navbatda, Vatanimiz tarixining ahamiyati beqiyosdir.

Vatanimiz mustaqillikka erishgunga qadar, bo‘lgan tariximizni boshqalar yozib keldi. Ular tarixga bo‘lgan o‘z qarashlarini xalqimiz ongiga singdirishga intildi. Shu boisdan, ularning bizning tariximizga bergan baholarini, tahliliy xulosalarini har doim xam to‘g‘ri deb bo‘lmaydi. Istiqlol bergan ijodiy erkinliklardan foydalanib, o‘z tariximizni o‘zimiz yozishimiz davri keldi, qachongacha biz tariximizni birovlarining nuqtayi nazari, qarichi bilan baholaymiz”<sup>4</sup>. Albatta vatanimizning shonli tarixida dunyo ilm-fanining rivojlanishida ulkan hissa qo‘shgan ota-bobolarimizni tarixiy merosini, Buyuk sarkarda bobokolonlarimizning vatan uchun jonini berganini vatanimiz olimlari tomonidan yozilishi kerak bo‘lgan tariximizning ulkan jihati deb bilaman.

O‘zbekiston ijtimoiy-iqtisodiy hayotining barcha sohalarida amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar, ma’naviy yangilanishlar bois mamlakatimiz XXI asrda milliy tiklanishdan milliy yuksalish tomon yo‘l oldi.

Globalashuv asri bo‘lmish – XXI asr, bir tomondan, umuminsoniy qadriyatlarni oldingi o‘ringa chiqishi, intellektual salohiyat ijtimoiy hayot mezonini belgilovchi darajaga aylanish, informatsion texnologiyalar taraqqiy etishi bilan izohlansa, ikkinchi tomondan, umumjahon miqyosidagi ma’naviy tahdidlar, “ommaviy madaniyat”ni keng xalq ommasi, ayniqsa, yoshlar ongiga singdirish, ta’lim-tarbiya sohasida salbiy illatlarning ildiz otishiga sabab bo‘layotgan asr hisoblanadi. Shu bois ham Prezident Sh.M.Mirziyoyev bu masalaga global tarzda yondashib, o‘zining BMT Bosh Assambleyasining 2017-yil sentabrda bo‘lib o‘tgan 72-sessiyasidagi nutqida alohida to‘xtalib, o‘sib kelayotgan avlodni, avvalo, ma’rifiy savodxonlik ruhida tarbiyalash masalasiga alohida urg‘u berdi. Shuning uchun ham hozirgi kunda o‘sib kelayotgan avlodning ongi va tafakkurini salbiy illatlardan himoya qilish ma’nosida ularda ma’naviy immunitetni hosil qilish, yoshlarning ongiga ajdodlarimizdan meros bo‘lib qolgan azaliy qadriyatlar – ezgulik, odamiylik, bag‘rikenglik, mehr-muhabbat, vatanparvarlik, yurtga sadoqat ruhini singdirishda tarix

<sup>1</sup> *Каримов И.А.* Тарихий хотирасиз келажак йук. - Т.: 1998. - 21-бет

<sup>2</sup> *Каримов И.А.* Тарихий хотирасиз келажак йук. - Т.: 1998. - 21-бет

<sup>3</sup> *Каримов И.А.* Тарихий хотирасиз келажак йук. - Т.: 1998. - 10-бет

<sup>4</sup> *Каримов И.А.* Тарихий хотирасиз келажак йук. - Т.: 1998. - 5-бет

fanining oʻrni beqiyosdir. Aynan Vatan tarixini anglash orqali oʻsib kelayotgan avlod nafaqat shonli oʻtmish tarixini, balki istiqbolning tom mazmunini, uning mamlakatimiz istiqboliga qaratilgan siyosati mohiyatini yanada teran tushunib yetadilar<sup>5</sup>. Mustaqillikning oʻtgan yillarida respublika tarixchi olimlari tomonidan katta ahamiyatga molik, dolzarb mavzularga bagʻishlangan ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirildi, qator oʻquv adabiyotlari, darslik, qoʻllanma, monografiyalar chop etildi. Taʼkidlash joizki, hozirgi kunda ham xalqimiz tarixini xolis va ilmiy asosda oʻrganish jarayoni davom etmoqda. Xususan, mustaqillikning oʻtgan oʻttiz yillik davri tarixining turli qirralari koʻplab olimlar, izlanuvchilar uchun tadqiqot obyekti boʻlib xizmat qilmoqda. Oʻzbekiston oʻz rivojlanishining yangi, zamonaviy jabhasida Harakatlar strategiyasida – Taraqqiyot strategiyasida belgilangan vazifalarni amaliy hayotga tadbqiq etishni maqsad qilib olgan holda yosh avlodni tarixiy oʻtmishga ulkan muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalash masalasini ustuvor vazifa sifatida belgilab oldi. Oʻzbekistonda tarix fanini rivojlantirish konsepsiyasi loyihasi eʼlon qilindi. Vazirlar Mahkamasining “Oʻzbekistonda 2021-2030 yillarda tarix fanini rivojlantirish konsepsiyasi” loyihasi eʼlon qilindi. Qayd etilishicha, konsepsiya prezident Shavkat Mirziyoyevning 2021 yil 19 yanvar kuni respublika Maʼnaviyat va maʼrifat kengashining videoselektor tarzida oʻtkazilgan majlisi 3-bayoni 27-bandi ijrosini taʼminlash maqsadida ishlab chiqildi. Konsepsiya yaratish zaruriyati jahonda tarix fanining rivojlanishi, yangi tarixiy bilimlarning ortishi, oʻtmishdagi voqealarga jamoatchilik qiziqishi kuchaygani hamda chuqur bilim va koʻnikmalarga ega, ijodiy va tizimli fikrlaydigan tarixchi mutaxassislar, oʻqituvchi va ilmiy xodimlar yangi avlodini chiqarish, olingan ilmiy natijalarni taʼlim-tarbiya, targʻibot-tashviqot ishlarida taʼsirchan qoʻllash, jamiyatda milliy oʻzlikni anglash hissini mustahkamlashda xizmat qiladigan tarixiy tafakkurni tarbiyalash bilan bogʻliq ekani aytiladi. Konsepsiya mazmuni Oʻzbekistonda tarix fani sohasi joriy holatining tanqidiy tahlili va mavjud muammolar, ilm-fanni rivojlantirish, taʼlim-tarbiya tizimi, axborot makoni bilan uzviy bogʻliqligini samarali yoʻlga qoʻyish talablaridan kelib chiqib, ilgʻor milliy va jahon tajribasini inobatga olgan holda, bosh maqsadi, vazifalari va ustuvor yoʻnalishlarini belgilab olishdan iboratdir. Konsepsiya qabul qilinishi natijasida tarix fani sohasini rivojlantirish butunlay yangicha asosda va tizimli ravishda amalga oshiriladi, jarayonni samarali boshqarish imkoni tugʻiladi. Ilmiy faoliyatni maqsadga muvofiq yoʻlga qoʻyish, katta moliyaviy xarajatlardan muayyan samara olish mumkin boʻladi. Shuningdek, oʻzbek xalqi va davlatchiligi tarixi boʻyicha butunlay yangicha, milliy manfaatlarga mos ilmiy yondashuvlar asosidagi turkum asarlar tayyorlanadi. Chuqur bilimga ega, ijodiy va tizimli fikrlaydigan ilmiy xodimlar avlodi shakllanadi. Oliy taʼlimda tarixchi mutaxassislar tayyorlashning butunlay yangicha, ilmiy muassasalar bilan uzviy bogʻlangan tizimi yaratiladi. Tarix yoʻnalishidagi ilmiy

<sup>5</sup> Ражабов Қ.Хасанов Ф. Қандов Б. Ўзбекистон республикасининг мустақиллик солномаси.Т.”Ўзбекистон миллий энциклопедияси”.2011.-Б.53

xodimlar, professor-o'qituvchilarni moddiy va ma'naviy rag'batlantirish darajasi yuksaladi<sup>6</sup>. Qadim, boy va noyob tarixiy merosni milliy va xorijiy darajada targ'ib etishning yangicha va samarali tizimi yaratiladi. Ta'kidlanishicha, konsepsiyani amalga oshirish bo'yicha sarf-xarajatlar davlat budjeti hisobidan qoplanishi nazarda tutilmoqda. O'zbekistonning mustaqillikka erishishi (1991-yil 31-avgust) mamlakat tarixida yangi bir davrni boshlab berdi. Bu davrda milliy g'oyani shakllantirish, tarixiy xotirani tiklash va O'zbekiston xalqining o'zligini anglash masalalari davlat siyosatining asosiy yo'nalishlaridan biriga aylandi. Mustaqillik yillarida tarix fani nafaqat ilmiy soha sifatida, balki milliy birligini mustahkamlovchi va xalqni kelajakka yo'naltiruvchi muhim vosita sifatida rivojlana boshladi<sup>7</sup>. Mustaqillik xalqning milliy o'zligini tiklash va tarixiy an'analarga qaytish talabini keltirib chiqardi. O'zbekiston hukumati tarix fanini rivojlantirish uchun bir qator chora-tadbirlar ko'rdi. Eng avvalo, mustaqillikni ta'minlash uchun milliy tarixni qayta tiklash, o'zbek xalqining qadimiy va o'rta asrlar tarixini o'rganish zaruriyati tug'ildi. Shu bilan birga, sobiq ittifoq davridagi tarixiy qarashlardan voz kechish, milliy tarixni mustahkamlash va xalqning ma'naviy salohiyatini oshirishga alohida e'tibor qaratildi. Shu davrda O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi huzurida yangi tarix ilmiy muassasalari tashkil etildi, masalan, O'zbekiston tarixi institutlari va yangi tarixiy tadqiqotlar markazlari. Bu markazlar O'zbekiston tarixini o'rganish, tarixiy manbalarni to'plash va ilmiy tadqiqotlar olib borish borasida faoliyat yurita boshladi. O'zbekistonda tarixiy manbalarni tiklash va saqlash bo'yicha muhim ishlar amalga oshirildi. Shuningdek tarixning yangi yo'nalishlari tarixni manbaviy, arxeologik, etnografik, numizmatik, epigrafik, tarixiy falsafiy asoslarga tayangan holatda yoritishga katta ahamiyat berilib xolisona yoritish uchun tarixchilarimiz tarixiy asarlarni yoza boshladilar. Tarixiy arxivlar, qadimiy yozma manbalar va etnografik materiallar yig'ildi, xalqning tarixiy xotirasi to'liqroq o'rganildi. Bu jarayonda O'zbekistonning tarixiy geografik hududi, qadimiy madaniyatlari va ularning dunyo tarixidagi o'rni qayta tiklanishi muhim ahamiyat kasb etdi. O'zbekiston tarixini o'rganish jarayonida arxeologik qazishmalar va tarixiy joylarda olib borilgan ilmiy ekspeditsiyalar natijasida juda qimmatli arxiv va topilmalar yuzaga keldi<sup>8</sup>. Masalan, Afrosiyobning qadimiy shahri (Samarqand) va To'ytepa (Farg'ona vodiysi)dagi qazishmalar O'zbekistonning o'rta asrlar tarixini, madaniyatini va iqtisodiy rivojlanishini aniqlashda muhim rol o'ynadi. Mustaqillikdan keyin O'zbekistonning tarix faniga bo'lgan yondashuvlar ham yangilandi. O'zbekiston tarixi maktablarda va oliy o'quv yurtlarida o'qitishning asosiy predmetiga aylanishi va tarix fanining zamonaviy uslublarda o'rganilishi talab etildi. Maktablarda tarix fanining

<sup>6</sup> Гуломов С. Убайдуллаева Р. Ахмедов Э. Мустакил Ўзбекистон.Т."Ислом университети".2003.-Б.114.

<sup>7</sup> Каримов И.А. Ўзбекистон иқтисодий ислохотларни чуқурлаштириш йўлида. – Т.: “Ўзбекистон”, 1994. – Б. 23.

<sup>8</sup> Халқ сўзи. 2012.11 декабр.

o'qitish usullari yangilandi, o'quv dasturlari milliy tarixga asoslangan holda qayta ishlab chiqildi.

- Milliy o'zlikni anglatuvchi tarix: O'zbekiston xalqining o'ziga xos tarixini o'rganish;

- Tarixiy adolatni tiklash: Sovet davridagi ideologik burtmalarni bartaraf etish;

- Davlatni yaratish va mustahkamlash: Mustaqil davlatning tarixi va uning rivojlanishi;

Oliy o'quv yurtlarida ham tarix fani yangi yondashuv bilan o'rganildi. Yangi o'quv kurslari va o'quv dasturlari ishlab chiqildi, zamonaviy tarixshunoslik usullaridan foydalanish yo'lga qo'yildi. Tarix institutida ham yangi tariximizni yoritishga qaratilgan bir qancha anjumanlar o'tkazildi shulardan biri 1999 yilda "O'zbekistonning yangi tarixi: konseptual metodik muammolar" mavzusidagi respublika va xalqaro ilmiy anjumanlarning ahamiyati katta bo'ldi va buning natijasida o'z yechimini kutayotgan bir qancha muammolarga takliflar berilib ma'lum ma'noda tariximizni yoritishning metodologik asosi uchun muhim qadamlardan biri qo'yildi.

Moddiy madaniy merosimiz va qadriyatlarimizning tiklash tarixiy yodgorliklar va madaniy merosni saqlash, tiklash va ularga e'tibor qaratish masalasi ham dolzarb bo'ldi.

O'zbekistonning ko'plab shaharlarida qadimiy me'moriy obidalar, masalan, Samarqand, Buxoro, Xiva, Termiz va Toshkentdagi tarixiy yodgorliklar qayta tiklandi. Shu bilan birga, tarixiy yodgorliklar va obidalar davlat himoyasiga olindi va xalqaro miqyosda tan olish ishlari boshlangan. Bundan tashqari, tarixiy voqealarni yoritishda milliy tarixiy manbalarni va ilmlarini o'rganishning ahamiyati ortdi. Shunday qilib, O'zbekiston o'z tarixini tiklash va dunyoqarashini kengaytirish borasida muhim qadamlarga tayanib ishladi. O'zbekistonning mustaqillikka erishishi bilan birga, xalqaro miqyosda ham o'zbek tarixini tanitishga katta e'tibor qaratildi. O'zbekiston tarixining yangi qirralari, ayniqsa qadimiy madaniyatlari, ilm-fani va siyosiy rivojlanishdagi o'rni haqida ilmiy ishlanmalar, kitoblar va maqolalar chiqarildi. O'zbekistonning tarixiy yodgorliklari va madaniy merosini tanitish borasida xalqaro ko'rgazmalar, konferensiyalar va simpoziumlar o'tkazildi<sup>9</sup>. Bu jarayon, shuningdek, O'zbekiston tarixining global miqyosda tanilishiga xizmat qildi. Mustaqillik davrining birinchi o'n yilligi (1991-2000) O'zbekistonda tarix fanini rivojlantirishning muhim bosqichini tashkil etdi.

Bu davrda milliy tarixni qayta tiklash, tarixiy manbalarni to'plash, ilmiy izlanishlar olib borish va tarix fani bo'yicha yangi uslublar yaratish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirildi<sup>10</sup>. Mustaqillikdan keyin O'zbekistonning tarixini o'rganish va uni xalqaro miqyosda tanitish borasida muhim yutuqlarga erishildi<sup>11</sup>. Tarix fanining rivojlanishi nafaqat ilmiy sohada, balki milliy madaniyat va milliy o'zlikni anglashda ham katta

<sup>9</sup> Қорабоев У. Соатов Ф. Ўзбекистон маданияти.Т. "Тафаккур бўстони".2001.-Б.131.

<sup>10</sup> Ислом Каримов. Юсак маънавият — енгилмас куч. — Т.: «Маънавият», 2008. 97-бет.

<sup>11</sup> Каримов И.А. Ўзбекистон истиқлол, иқтисод, сиёсат, мафкура. 1-жилд. 1996 й.

ahamiyatga ega bo'ldi. Mustaqillik davrida esa, tarixiy tadqiqotlar uchun yangi yo'nalishlar shakllandi, bu esa O'zbekistonning tarixini o'z milliy kontekstida o'rganishga, tarixiy haqiqatlarni qayta tiklashga, hamda o'rta asrlar, qadimiy davr va zamonaviy tarixga alohida e'tibor qaratishga imkon yaratdi. mustaqillik davrida O'zbekistonda tarixiy tadqiqotlar uchun yangi yo'nalishlar, metodologiya va ilmiy izlanishlarning asosiy yo'nalishlari ko'rib chiqiladi. Mustaqillikning dastlabki yillarida O'zbekistonning tarixiy xotirasini tiklash va milliy tarixni qayta o'rganishning ahamiyati kuchaydi<sup>12</sup>. O'zbekistonning tarixiy o'tmishi, milliy qadriyatlari va o'ziga xosligini anglatuvchi tarixiy tadqiqotlar davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylandi. O'zbekistonda tarixiy tadqiqotlar faqat 20-asrning oxirlariga kelib, o'ziga xos yangi yo'nalishlar yaratishga muvaffaq bo'ldi. Bu davrda O'zbekistonning eng qadimiy davrlari, jumladan, Xorazm madaniyati, Baqtriya va Sug'd madaniyati kabi qadimiy markazlarni o'rganishga alohida e'tibor qaratildi. Shuningdek davlatchiligimizning tarixiy rivojlanishi bo'yicha muhim ilmiy yangiliklar fanga olib kirildi. Arxeologiya va etnografiya sohalarida olib borilgan yangi tadqiqotlar xalqning milliy o'zligini tiklashga xizmat qildi. Tarixiy manbalar, jumladan, Yaxshiqo'rg'on, Afrosiyob, Mingtepa, Nisa (Xorazm) kabi qadimiy joylarda olib borilgan qazishmalar orqali O'zbekistonning qadimiy tarixiga oid yangi bilimlar olindi. Mustaqillikdan so'ng, sovet davri tarixining ko'pgina dog'larini aniqlash va ularga qarshi kurashish zarurati paydo bo'ldi. Sovet davrida ko'plab tarixiy faktlar ideologik sabablar tufayli noto'g'ri yoritilgan edi. Masalan, o'sha davrdagi "marksistik-leninistik" yondashuvlarning ta'siri ostida O'zbekiston va uning xalqlarining tarixi ko'pincha qiyshiq va bir tomonlama yoritilgan. Shu sababli, 1991-yilgi mustaqillikdan keyin tarixshunoslik sohasida yangi yo'nalishlar - milliy tarixni qayta tiklash, adolatni tiklash, sovet davrining siyosiy ideologiyasidan xoli ilmiy tahlil qilish muhim yo'nalishlarga aylandi. Mustaqillik davrida tarixshunoslik metodologiyasida jiddiy yangiliklar yuz berdi. Yangi davrda tarixiy tadqiqotlar uchun zamonaviy ilmiy metodlar, interdisipliner yondashuvlar, va global va mintaqaviy tarixni o'zaro bog'lash kabi yondashuvlar joriy etildi. Og'zaki tarixni rivojlanishi uchun ham muhim qadamlar qo'yildi. Zamonaviy tarixshunoslik metodologiyasida tarix fanining boshqa ijtimoiy fanlar bilan integratsiyasi muhim rol o'ynadi. Masalan, siyosatshunoslik, iqtisodiyot, antropologiya, psixologiya kabi fanlar bilan birgalikda tarixiy voqealar va jarayonlarni tahlil qilish, tarixni yanada kengroq va chuqurroq tushunishga imkon berdi. Bu metodologiya, ayniqsa, O'zbekistonning o'rta asrlar tarixini o'rganishda, milliy va global miqyosda siyosiy, iqtisodiy va madaniy omillarni o'rganishda keng qo'llanildi. Mustaqillik davrida O'zbekiston tarixini global tarixning bir qismi sifatida tahlil qilish yo'nalishi rivojlandi. Bu yondashuv O'zbekistonning o'rta asrlar va o'rta asrlar avvalidagi tarixini faqat hududiy nuqtayi nazardan emas, balki global tarixiy jarayonlar, masalan, Islom sivilizatsiyasi, Buyuk Ipak yo'li va Dunyo o'lkalarining o'zaro aloqalari kontekstida o'rganishni o'z ichiga oldi.

---

<sup>12</sup> Каримов И.А. Юсак маънавият-енгилмас куч. Тошкент, 2008. 134-бет

Mustaqillik davrida yangi tarixiy manbalarni ochish va mavjud manbalarni qayta tahlil qilishga e'tibor qaratildi. Bu jarayonda arxeologik topilmalar, yangi tarixiy yozuvlar va tadqiqotlar muhim rol o'ynadi. Kompyuter texnologiyalari va zamonaviy tadqiqot metodlaridan foydalanish orqali O'zbekistonning tarixiy obidalarini yanada chuqurroq o'rganish imkoniyati yaratildi. Masalan, arxeologik kartografiya va geoinformatsion tizimlar (GIS) yordamida tarixiy obidalar va yodgorliklar tahlil qilindi. Mustaqillikdan so'ng tarixshunoslikda milliy g'oya va tarixiy identifikatsiya masalasi alohida o'rin tutdi. O'zbekiston tarixshunosligida milliy ma'naviyatni mustahkamlash, milliy birlikni saqlash, o'zbek xalqining tarixiy g'oyalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan tadqiqotlar muhim yo'nalishlardan biriga aylandi. Bu borada Mustaqillik yillarida tarixiy shaxslarni o'rganish, ma'naviy xotira va madaniyatni tiklash, va davlat ramzlari, bayroqlar, madaniy meros kabi masalalar o'rganildi. Mustaqillik g'oyasi bilan bog'liq tarixiy tadqiqotlar O'zbekistonning o'ziga xos va mustaqil tarixiy yo'lini qidirish, xalqning o'z tarixini o'z sharoitlarida anglashga qaratilgan edi. Bu borada olib borilgan tadqiqotlarda o'zbek tarixining jarayonlarini milliy mustaqillik g'oyasi bilan bog'lash muhim rol o'ynadi. Mustaqillik davrida tarix fanini rivojlantirishda xalqaro hamkorlikning o'rni ham muhim edi. O'zbekiston tarixshunoslari o'z ishlarini xalqaro miqyosda kengaytirishdi, va xalqaro konferensiyalar, simpoziumlar, ilmiy almashinuvlar orqali milliy tarixni dunyoga tanitishda ishtirok etdilar. Shu bilan birga, O'zbekistonning qadimiy obidalarini saqlash va ularni xalqaro hamjamiyatga tanitish ishlari davom ettirildi. 1996 yilda vatanimizda tarix fanini o'qitish va o'rganishning konsepsiyasi ham qabul qilinib mazkur konsepsiya ta'lim tizimida tarix fanini o'qitish va o'rganish jarayonida muhim ahamiyat kasb etdi. Shu bilan birgalikda davlatchiligimizni tarixini aks ettirgan 1998 yilda bir guruh tarixchi olimlarimiz tomonidan qabul qilinga konsepsiyamiz ham muhim ahamiyatli hujjat hisoblanib unda vatanimiz tarixini tarixiy faktlarga tayangan holatda yoritish belgilab olingandir.

Xulosa qiladigan bo'lsak 3000 yillik tarixga ega bo'lib vatanimiz hududiga turli davrlarda bosqinchilar bostirib kelganda ham mustamlakachilik bosqichini boshidan kechirganda ham bu tarix vatanimiz tarixining asosiy bir bo'lagi bo'lib qolavaeradi. Vatanimiz mustaqillika erishgach tariximizni yangitdan mafkuraviy qarashlardan xoli ravishda yaratish eng muhim masala edi. Milliy tariximiz, an'nalarimiz urf-odatlarimizning qaytdan yuzaga chiqishi uchun qilingan harakatlar asta-sekinlik bilan o'z natijasini bera boshladi, milliy tariximizni yorituvchi ilmiy tadqiqot asarlari yozila boshlandi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йук. - Т.: 1998.
2. Каримов И.А. Ўзбекистон иқтисодий ислохотларни чуқурлаштириш йўлида. — Т.: “Ўзбекистон”, 1994.
3. Каримов И.А. Ўзбекистон истиқлол, иқтисод, сиёсат, мафкура. 1-жилд.
4. Ислон Каримов. Юксак маънавият — енгилмас куч. — Т.: «Маънавият», 2008.

5. Ражабов Қ.Хасанов Ф. Қандов Б.Ўзбекистон республикасининг мустақиллик солномаси.Т.”Ўзбекистон миллий энциклопедияси”.2011.
6. Гуломов С. Убайдуллаева Р. Аҳмедов Э. Мустақил Ўзбекистон.Т.”Ислон университети”.2003.
7. .Қорабоев У. Соатов Ғ. Ўзбекистон маданияти.Т. “Тафаккур бўстони”.2001